



## O'ZBEK MA'NAVIY UYG'ONISHINING USTUNI — ABDULLA AVLONIY

*Burhonova Sitora Sunnatillo qizi*

*sitoraburhonova40@gmail.com*

*O'zbekiston Davlat Juhon tillari universiteti*

*Sharq filologiyasi koreys tili fakulteti talabasi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada o'zbek milliy madaniyatning mashhur vakillaridan biri Abdulla Avloniying ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, falsafviy dunyoqarashi va yaratgan darsliklari hamda erishgan davlat mukofotlariga bag'ishlangan. Unda adibning yoshlik davrdayoq bilimga intilishi, jadidchilik va ma'rifatparvarlik faoliyati hamda ilmiy-pedagogik merosiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga ushbu maqola uning dramatik va jurnalistik tajribalarini ham o'z ichiga olgan.

**Аннотация:** Статья посвящена вкладу Абдуллы Авлони, одного из выдающихся представителей узбекской национальной культуры, в развитие науки, его философскому мировоззрению, созданным им учебникам и полученным им государственным наградам. В ней основное внимание уделяется стремлению писателя к знаниям с юности, его новаторской и просветительской деятельности, научному и педагогическому наследию. В то же время в статье отражены его драматический и публицистический опыт.

**Abstract:** This article is devoted to the contribution of Abdulla Avloni, one of the famous representatives of Uzbek national culture, to the development of science, his philosophical outlook, the textbooks he created, and the state awards he received. It focuses on the writer's desire for knowledge from his youth, his innovative and enlightening activities, and his scientific and pedagogical heritage.



At the same time, this article also includes his dramatic and journalistic experiences.

**Kalit so‘zlar:** Abdulla Avloniy, hayoti, shoir, jadidchilik, ilmiy-pedagogik, darsliklar, jurnalistik, dramatik, ma'rifatparvarlik, davlat, avloq, turkiy.

**Ключевые слова:** Абдулла Авлони, жизнь, поэт, джадидизм, научно-педагогический, учебники, публицистический, драматический, просветительский, государственный, Авлок, тюркский.

**Keywords:** Abdulla Avloni, life, poet, Jadidism, scientific and pedagogical, textbooks, journalistic, dramatic, enlightenment, state, Avloq, Turkic.

**Kirish:** Tarix sahnasiga har asr, har zamon o‘zining yetuk va buyuk farzandlarini taqdim etadi. Ular ichida shunday insonlar borki, ularning birgina hayoti butun bir zamonning ma’naviy tarixi, ziyolilik jasorati, yurt uchun yonib yashash ifodasidir. Mana shunday zabardast siymolardan biri Abdulla Avloniydir.

U jaholat zulmiga nur yog‘dirgan har bir gapida xalqni o‘ylagan, har bir ishi bilan ma’rifatning yorug‘ yo‘lini yoritgan fidoyi zot edi. Avloniy hayoti bu faqat bir shoir yoki pedagogning yo‘li emas, balki u xalqning yaxshi yashashi, taqdiri uchun kurashgan, o‘z qalami bilan millatning uyg‘onishi orzu qilgan fidoyi inson timsolidir. U o‘z asarlarida zaiflikka, johillikka va zulmga qarshi kurashdi, ammo qilich yo xanjar bilan emas, balki qalbi, kalomi, axloqi bilan.

### **Hayot yo‘li hamda ilmiy-pedagogik va adabiy merosi faoliyati:**

Atoqli ma’rifatparvar, iste’dodli shoir va pedagog Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda kosib oilasida dunyoga kelgan va eski maktabda ta’lim olgan [1]. U 12 yoshidayoq O‘qchi mahallasidagi madrasada tahsil ola boshlaydi. 13



yoshidan boshlab chilla yozda mardikor bo‘lib ishlab oilasiga yordam qiladi va asosan qish kunlari o‘qish bilan shug‘ullanadi. U eng yosh vaqtvari ya’ni 14 yoshidayoq o‘sha zamonga muvofiq har turdag‘i sherlar yoza boshlaydi. Bu zamonlarda „Tarjimon“ gazetasini o‘qib, zamonda boxabar bo‘lib turardi. Avloniy madrasani tamomlagach maktabdorlik bilan shug‘ullandi. O‘qish va o‘qitish usulini isloh qilib, yangi turdag‘i o‘qitish usullarini, darsliklarini yarata boshladi. Sharq va G‘arb tillarini o‘rganish kabi muhim ta’lim - tabiyaviy ishlarni amalga oshirdi. „Qobil“, „Hijron“, „Avloniy“, „Surayyo“, „Abulfayz“, „Indamas“ kabi taxalluslari bilan ijod qilgan bu davlat arbobi yangi maktablar uchun qo‘llanma va o‘qitish kitoblar yozib, nashr qildirgan. Masalan „Birinchi muallim“, „Ikkinchi muallim“, „Turkiy Guliston yoxud Axloq“, „Adabiyot yoxud milliy she’rlar“, „Maktab gulistoni“, „Mardikorlar ashuvlasi“ va boshqalar[2]. U o‘z umri davomida yana ko‘plab biz yoshlar uchun asarlar, kitoblar yozib qoldirgan. „Biz va siz“, „Pinak“, „Portugaliya inqilobi“, „Bo‘ron“ pyesalari va „Tulki ila qarg‘a“ masali bugungi kunda bolalar va yoshlarni, balki yoshi katta insonlarning qalbidan joy olgan. Adib yana pyesalar va darsliklar bilan cheklanib qolmay she’rlar ham yozib qoldirgan. Masalan „Millatga xitob“, „Ishchilara tortuq“, „Ko‘klam keldi“ va boshqalar.

### **Jadidchilik va ma’rifatparvarlik hissi hamda dramatik va jurnalistik tajriba:**

Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda „Jamiyat xayriya“ uyushmasini tashkil etadi[3]. 1905-1917- yillarda matbuotdagi ko‘plab asarlari, shu jumladan publitsistik maqolalari va qizg‘in faoliyati bilan „bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxumini sochg‘on“ ham Abdulla Avloniy bo‘ldi. Shunday baholangan



va Avloniyning o‘zi nashr etgan o‘sha gazeta „ Shuhrat“ edi. Adib Turkistonda birinchilardan bo‘lib maktab dars jadvaliga kimyo, geografiya, fizika va handasa fanlari kiritilishiga ta’sir ko‘rsatdi .

Abdulla Avloniy 1917-yilgacha mahalliy aholi orasidan ulg‘aygan noshir va jurnalist sifatida Toshkentda „ Shuhrat“ , „ Osiyo “ kabi gazetalarning faoliyatini boshladi. U „ Advokatlik osonmi?“ , „ Ikki muhabbat “ , „ To‘y “ , „ Syezd “ , „ Layli va Majnun “ „, O‘liklar “ kabi dramatik asarlarni yozib, ularda bilimsizlikning, jaholatning fojeali oqibatlarini, qo‘pol va yomon urf-odatlarni yaqqol ko‘rsatib berdi.

### **Adib xotirasiga ehtirom:**

Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish choralarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-fevraldagи „ Abdulla Avloniy tavalluding 140 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida“ gi farmoni tasdiqlandi [4]. Shu borada maktab va oliy o‘quv yurtlarida u haqida darslar, ochiq mashg‘ulotlar, konferensiyalar o‘tkazila boshlandi. Ma’rifatparvar shaxsning buyuk ishlari va butun boshli hayotini xalqning yaxshi hayoti va ilmiga bag‘ishlaganligini uchun vafotidan so‘ng “ Buyuk xizmatlari uchun “ ordeni bilan mukofotlandi[5]. Shu jumladan Abdulla Avloniy nomidagi ilmiy - ma’rifat tadqiqot instituti tashkil qilindi. Toshkentda Avloniy muzeyi hamda haykali barpo etildi[6].

### **Xulosa:**

Abdulla Avloniy — o‘zbek xalqining ma’rifat yo‘lidagi buyuk yo‘lboshchisi, ustoz va ma’naviyat fidoyisidir. U ilm, axloq va xalqparvarlik g‘oyalalarini targ‘ib qilib, butun bir avlodni uyg‘otdi. Bugungi kunda uning asarlari, g‘oyalari va merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi avlod uchun ilhom



manbaiga aylangan. Davlat miqyosida e'tirof etilib, nomi abadiylashtirilgan Avloniy — millat faxri, ma'rifat ramzidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.<https://tafakkur.net/abdulla-avloniy.haqida>
- 2.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla\\_Avloniy](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Avloniy)
- 3.<https://corp.uzairways.com/uz/abdulla-avloniy-1878-1934>
- 4.<https://lex.uz/docs/-4966477>
- 5.<https://elib.tstu.uz/wp-content/uploads/2022/08/Abdulla-Avloniy.pdf>
- 6.<https://yandex.uz/maps/org/7702217171/?ll=69.237592%2C41.301695&z=16>